

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**



**«TASDIQLAYMAN»**  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori A.K.Shadmanov

20 23 yil «25» 07

**YUQUMLI KASALLIKLAR  
MODUL DASTURI**

|                              |          |   |  |
|------------------------------|----------|---|--|
| <b>Bilim sohasi:</b>         | 900 000  | – | Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot |
| <b>Ta'lim sohasi:</b>        | 910 000  | – | Sog'liqni saqlash                      |
| <b>Ta'lim yo'nalishlari:</b> | 60910600 | – | Tibbiy-biologik ish                    |

**Toshkent -2023**

|                               |  |  |                                     |                            |
|-------------------------------|--|--|-------------------------------------|----------------------------|
| <b>Modul kodi</b><br>Yuk1602  | <b>O'quv yili</b><br>2023/2024   | <b>Semestr</b><br>6                    | <b>Kreditlar</b><br>2               |                            |
| <b>Modul turi</b><br>Majburiy | <b>Ta'lim tili</b><br>O'zbek/rus   |  | <b>Xaftadagi dars soatlari</b><br>2 |                            |
| <b>1.</b>                     | <b>Modul nomi</b>  | <b>Auditoriya mashg'ulotlar (soat)</b> | <b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>       | <b>Jami yuklama (soat)</b> |
|                               | Yuqumli kasalliklar  | 30                                     | 30                                  | 60                         |
| <b>2.</b>                     | <p><b>I. Modulning mazmuni</b></p> <p>Ushbu modul dasturi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti va bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan, tibbiyot oliy o'quv yurtlarining tibbiy biologik ishi talabalariga yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklari modulidan ta'lim berish uchun mo'ljallangan. Dastur yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklari moduli bo'yicha o'qitiladigan talabalarning bilishlari kerak bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar hajmini belgilaydi.</p> <p>Dastur talabalarga yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklarining asosiy klinik simptomlari, ularning tashhisot printsiplari, qiyosiy tashhisot aspektlari, shoshilinch holatlarda tez yordam ko'rsatish choralari, shuningdek profilaktika asoslari (umumiy va maxsus) bilimlarini egallab olishga imkoniyat yaratadi. Bu o'z navbatida organizmning faoliyatini va uning atrof-muhit bilan muloqotini, chuqurroq tushunib yetishga asos yaratadi.</p> <p>Mazkur modul o'quv rejadagi biologiya, odam anatomiyasi, fiziologiyasi, kimyo, gistologiya, immunologiya, mikrobiologiya va parazitologiya, epidemiologiya, ichki kasalliklar, klinik immunologiya, ftiziatriya, klinik farmakologiya, jarroxlik kasalliklari, bolalar kasalliklari, asab kasalliklari va shoshilinch tibbiy yordam, neyroxirurgiya modullaridan o'zlashtirilgan bilimlarga asoslanadi.</p> <p><b>Modulni o'qitishdan maqsad</b> – amaliy sog'liqni saqlash tizimida yuqumli kasalliklarga xizmat ko'rsatish, yuqumli kasalxonalarda laboratoriya tuzilishi va ishlash printsiplari, yuqumli kasalliklar to'g'risida bilim berish, asosiy diagnostika usullar bilan tanishtirish.</p> <p><b>Modulning vazifasi</b> – respublikamiz hududida va tashqaridan kirib kelayotgan yuqumli kasalliklarni anamnez va klinik laborator ma'lumotlarga asoslanib erta aniqlash, bemorlarni to'g'ri davolash va profilaktik chora-</p> |  |                                     |                            |

tadbirlarni to'g'ri o'tkazish; yuqumli va o'ta xavfli kasalliklar o'chog'ida bemorlar bilan muloqotda bo'lganlar orasida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish asoslarini o'qitish; bakteriologik, virusologik va serologik laboratoriyalarning ish jarayoni bilan tanishish va tekshiruvga biologik material olish usullarini bilish; sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni o'qitish.

## **II. Asosiy nazariy qism**

### **II.I. Modul tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu.** Mutaxassislikka kirish. Virusli hepatitlarning (A,E,B,C,D) erta tashxisoti. Yuqumli xizmatning tuzilishi, yuqumli kasalliklar tasnifi, yuqumli jarayon davrlari, yuqumli kasalliklarning asosiy klinik sindromlari, yuqumli kasalliklarning diagnostikasi, davolash va profilaktikasining umumiy printsiplari. Yuqumli kasalxonada laboratoriyalarni joylashishi va tartibi. Virusli hepatitlar (A,E,B,C,D) etiologiyasi, epidemiologiyasi, kasallik manbai, yuqish mexanizmlari, patogenez, klinikasi, klinik tasnifi, laborator diagnostikasi, Kasallikning birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlari, aholi orasida kasallikni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

**2-mavzu.** Bakterial ichak infeksiyalarining erta tashxisoti. Ich terlama. A va B paratiflar. Salmonellyoz, shigellyoz, OTI, botulizm, vabo etiologiya, klinikasi, epidemiologik va laborator ma'lumotlarni diagnostikada tutgan o'rni. Bakteriologik tekshiruvni o'tkazish, bakteriologik tekshiruv uchun material olish qoidalari, natijalarni taxlil etish. Kasalliklarning birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlari, aholi orasida kasallikni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

**3-mavzu.** Zoonoz va o'ta xavfli infeksiyalarning erta tashxisoti. Brutsellyoz, o'lat, tulyaremiya, kuydirgi, maymun chechagi, O'zbekiston (Qrim-Kongo) gemorragik isitmasi etiologiya, klinikasi, epidemiologik va laborator ma'lumotlarni diagnostikada tutgan o'rni. O'XI bilan kasallangan bemor aniqlanganda shifokor taktikasi, tekshiruvga material olish usullari. O'XYuK tashhisot algoritmini tuzish. O'choqdagi shoshilinch profilaktik chora-tadbirlar.

## **III. Amaliy (laboratoriya) mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

**1-mavzu.** Yuqumli kasalliklar moduliga kirish. Virusli hepatitlarning (A,E,B,C,D) erta va qiyosiy tashxisoti.

**2-mavzu.** Virus etiologiyali kasalliklarning (O'RVI, gripp, epidemik

parotit, OIV-infektsiyasi) erta va qiyosiy tashxisoti. Virusologik va immunologik tekshiruv usullari.

**3-mavzu.** Bakterial ichak infeksiyalarining (Ich terlama. A va B paratiflar, salmonellyoz, shigellyoz, OTI, botulizm, vabo) erta va qiyosiy tashxisoti. Bakteriologik tekshiruv usullari. Parazitologik kasalliklarning (enterobioz, askaridoz, tenioz, teniarinxioz, geminolipidoz, bezgak, amyobiaz, lyamblioz) erta va qiyosiy tashxisoti. Parazitologik tekshiruv usullari.

**4-mavzu.** Ekzantema sindromi bilan kechuvchi yuqumli kasalliklarning (qizamiq, qizilcha, skarlatina, suvchechak, iersiniozlar, meninkogokk infeksiyasi) erta va qiyosiy tashxisoti.

**5-mavzu.** Zoonoz va o'ta xavfli infeksiyalarning (brutsellyoz, o'lat, tulyaremiya, kuydirgi, O'zbekiston gemorragik isitmasi) erta va qiyosiy tashxisoti. O'XI ko'riladigan chora-tadbirlar.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari jihozlari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarda faol va interfaol usullar qo'llaniladi. "Loyihali o'qitish", "Keys-stadi" va boshqa texnologiyalaridan foydalaniladi. Tarqatma materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

#### **IV. Amaliy ko'nikmalar:**

1. sariqlik belgisi bilan kechuvchi kasalliklarda siydikda o't pigmentini aniqlash (Rozin sinamasi);
2. bemordan gemokulturaga qon olish (TPK misolida);
3. o'tkir ichak kasalliklari (salmonellez va ichburug')da bakteriologik tekshirish uchun najas olish;
4. ko'kyo'tal kasalligida bemordan bakteriologik tekshirish uchun "yo'tal plastinka" usulida namuna olish;
5. uy sharoitida bemorlarda oral regidratatsiya o'tkazish qoidasi;
6. hayvonlar va kemiruvchilar tishlaganda jarohatlarni tozalash
7. bezgak kasalligida gemoparazitni aniqlash maqsadida yo'g'on tomchi tayyorlash;
8. bezgak kasalligida gemoparazitni aniqlash maqsadida surtma tayyorlash;
9. enterobioz kasalligida gijja tuxumlarini aniqlash uchun perianal sohadan surtma tayyorlash qoidalari

**Modul davomida o'quv (klinik) amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**

Talabalarning "Yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklari" moduli bo'yicha klinik amaliyoti ta'lim jarayonining 50%ini tashkil qiladi va

amaliy mashg'ulotlar O'zR SSV qarashli RIEMYuPKIAM klinikasi va poliklinikasida, TTA 3-klinikasida o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich – mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganish motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob-anjomlar ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalari bilan talabar tanishtiriladi.

Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedrada barcha asbob anjomlar mavjud va ishchi holatda bo'lishi lozim.

2. Ikkinchi bosqich – amaliy ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni qadamma qadam algoritmi pedagog tomonidan va videofilmlar orqali namoish etiladi, algoritm asosida bosqichma bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Talaba amaliy ko'nikmani mustakil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida, keyinchalik umumlashtirgan xolda to'liq va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruhsat beriladi (imitatsion trening).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko'nikmalar qadamma qadam algoritmi va videofilmi, o'quv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mulyajlyar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob anjomlar bo'lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda pedagog nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'irlaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoyish etilishi, tanqidiy muhokama qilinishi mumkin. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko'nikma aftomatizm darajasigacha yetkazilishi maqsadga muvofiq.

3. Uchinchi bosqich - o'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemorda qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli xil klinik holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni tahlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi.

Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalalar va testlar to'plami, keyslar, klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi kasallik tarihlari va ambulator kartalar va x.q.

ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.

4. To'rtinchi bosqich – hulosa. Bu bosqichda pedagog talaba tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlarda, turli xil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'llay olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirildi deb hisoblanadi.

To'rtinchi bosqichni amalga oshirish uchun talaba bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, kasallik tarixini yozib himoya qilganda baholanadi.

Mashg'ulot so'ngida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda modulni o'zlashtirgan hisoblanadi

## **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. Vaktsinoprofilaktika. Ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Vaktsina turlari.
2. Respirator sindrom bilan kechuvchi yuqumli kasalliklarning (infektsion mononukleoz, difteriya, ko'kyo'tal) erta va qiyosiy tashxisoti
3. Enteroviruslar chaqirgan kasalliklarning (virusli diareyalar, poliomielit) erta va qiyosiy tashxisoti
4. TORCH-infektsiyasi (gerpetik infektsiya, toksoplazmoz, ureoplazma) erta va qiyosiy tashxisoti
5. Jarohat infeksiyalari (saramas, qoqshol, qutirish)

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:**

modul bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislari tayyorlash;
- vaziyatli va klinik muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
  - keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;
  - grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish;

|    |   |
|----|---|
|    | <p>– krossvordlar tuzish va yechish;<br/> – prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qo‘llash va h.k.</p> <p><b>Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiyalar:</b><br/> modul bo‘yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘tkaziladi.<br/> Talaba mustaqil ishini tashkil etishda qo‘yidagi shakllardan foydalaniladi:<br/> – auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari trenajer, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko‘nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish;<br/> – tibbiyot OTM klinikalari va klinik o‘quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko‘nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish;<br/> – bemorlar kuratsiyasida davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan nazorat qilishda ishtirok etish;<br/> – aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni suxbat va ma’ruzalarni o‘tkazish;<br/> – ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;<br/> – berilgan mavzu bo‘yicha axborot (referat) tayyorlash;<br/> – modulning bo‘limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha ishlash va ma’ruzalar qilish;<br/> – vaziyatli va klinik muammollarga yo‘naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;<br/> – SASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) yechish;<br/> – modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.</p> |
| 3. | <p style="text-align: center;"><b>VI. Ta’lim natijalari/ kasbiy kompetensiyalar</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b><br/> <b>Semestr yakunida:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• bemorning shikoyati, epidemiologik anamnezi va kasallik anamnezini to‘plash;</li> <li>• bemorni a’zolari va tizimlari bo‘yicha klinik tekshirish;</li> <li>• birlamchi tashxisni asoslash uchun zarur bo‘lgan anamnestic va klinik belgilarni aniqlash va ularning yetakchilarini ajratish;</li> <li>• laborator va instrumental tekshiruvlar rejasini tuzish; natijalarni tahlil</li> </ul>   |

|    |  |
|----|--|
|    | <p>qilish <b>haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim).</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• yuqumli kasalliklarni etiologiyasi va epidemiologiyasi;</li> <li>• yuqumli kasalliklarni patogenezini va patologik anatomiyasi;</li> <li>• yuqumli kasalliklarga xos klinik belgilar;</li> <li>• yuqumli kasalliklarni hozirgi davrda klinik kechish xususiyatlari;</li> <li>• yuqumli kasalliklarni boshlang'ich davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shoshilinch holatlar;</li> <li>• jamoada, oilada va kasalxonada infeksiya tarqalishining oldini olish chora tadbirlarini <b>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma).</b></li> <li>• sariqlik belgisi bilan kechuvchi kasalliklarda siydikda o't pigmentini aniqlash (Rozin sinamasi);</li> <li>• bemordan gemokulturaga qon olish (TPK misolida);</li> <li>• o'tkir ichak kasalliklari (salmonellez va ichburug')da bakteriologik tekshirish uchun najas olish;</li> <li>• ko'kyo'tal kasalligida bemordan bakteriologik tekshirish uchun "yo'tal plastinka" usulida namuna olish;</li> <li>• uy sharoitida bemorlarda oral regidratatsiya o'tkazish qoidasi;</li> <li>• hayvonlar va kemiruvchilar tishlaganda jarohatlarni tozalash;</li> <li>• bezgak kasalligida gemoparazitni aniqlash maqsadida yo'g'on tomchi tayyorlash;</li> <li>• bezgak kasalligida gemoparazitni aniqlash maqsadida surtma tayyorlash;</li> <li>• enterobioz kasalligida gijja tuxumlarini aniqlash uchun perianal sohadan surtma tayyorlash qoidalari <b>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka).</b></li> </ul> |
| 4. | <p style="text-align: center;"><b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Interfaol o'yinlar;</li> <li>• Seminar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• Guruhlarda ishlash;</li> <li>• Taqdimotlarni kiritish;</li> <li>• Individual loyihalar;</li> <li>• Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>  |
| 5. | <p style="text-align: center;"><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Joriy nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha muvoffaqiyatli topshirish.</p>  |



### **Asosiy adabiyotlar**


1. Axmedova M.D. Yuqumli kasalliklar. Darslik. -Toshkent .“Abu Ali ibn Sino” tibbiyot nashriyoti. 2012.
2. Инфекционные болезни с детскими инфекциями. Учебник в 2-х ч./Под редакцией академика АН РУз Даминов Т.А. – Ташкент. «Тиб-китоб» 2011.
3. Зокирходжаев А.Х. Руководство по инфекционным болезням для студентов медицинских вузов. Учебник. -Ташкент. “Абу Али ибн Сино” мед.типогр. 2010.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

4. Под редакций Е. П. Шувалова, Е. С. Белозеров, Т.В. Беллева, Е.И. Змушко. Инфекционные болезни. Учебник для Вузов. –«Спецлит», 2016.
5. Под редакций Е. П. Шувалова, Е. С. Белозеров, Т.В. Беллева, Е.И. Змушко. Инфекционные болезни: Учебник. - СПб: «Спецлит», 2015.
6. Н. Д. Ющук, Ю.В. Мартынов, Е.В. Куттевич, Ю.Ю. Гришина. Эпидемиология инфекционных болезней. Учебник. – Москва. ГЭОТАР - Медиа, 2014.
6. 7. Под редакцией проф. В.И. Лучшева.С.Н Жарова, В. В.Никифорова Атлас инфекционных болезней: Учебник/.- М.: «ГЭОТАР - Медиа», 2009.
8. В.И.Покровский. Инфекционные болезни и Эпидемиология. Учебник. - Москва. ГЭОТАР-Медиа, 2008.
9. Рахmatov O. B. “Bolalar yuqumli kasalliklari”. Darslik. Toshkent “Cho’lpon” tibbiyot nashriyoti, 2008.
10. Покровский В.И.и др «Инфекционные болезни и Эпидемиология». Учебник. Москва «Медицина», 2003.
11. Ющук Н.Д., Венгеров Ю.Я. «Инфекционные болезни». Учебник. Москва «Медицина», 2003.
12. Самарина В.Н., Сорокина О.А. «Детские инфекционные болезни». Учебник. С.Петербург «Невский Диалет», 2001.

### **Internet saytlari:**

[www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)  
[www.tma.uz](http://www.tma.uz)  
[www.bsmi.uz](http://www.bsmi.uz)  
[www.Ziyonet](http://www.Ziyonet)  
[www.medlincs.ru](http://www.medlincs.ru)

|    |  |
|----|--|
|    | <p>www.infeksya.uz<br/> <a href="http://www.medbook.ru">www.medbook.ru</a>.</p>  |
| 7. | <p><b>Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b></p> <p>Modulning o'quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasining 2023 yil "25" 04 dagi 01335-sonli buyrug'i (buyruqning 2 -ilovasi) bilan tasdiqlangan.</p> <p>O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i  F.X.Azizova</p> |
| 8. | <p><b>Modul uchun ma'sullar:</b></p> <p><b>Tuychiev L.N.</b> – TTA yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrası mudiri, t.f.d., professor</p> <p><b>Raxmatullaeva Sh.B.</b> – TTA yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrası dotsenti, DSc.</p> <p><b>Magzumov X.B.</b> – TTA yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrası dotsenti, t.f.n.</p>                         |
| 9. | <p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>Ichki taqrizchi:</b></p> <p><b>Karimova M.T.</b> – TTA yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrası dotsenti, t.f.d.</p> <p><b>Tashqi taqrizchi:</b></p> <p><b>Qosimov I.A.</b> – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Epidemiologiya, yuqumli kasalliklar, kafedrası mudiri, professor, t.f.d.</p>  |